

“Tasdiqlayman”
Xalqaro Nordik universiteti
rektori Sh.I. Mustafakulov

2025 yil



**XALQARO NORDIK UNIVERSITETIDA MAGISTRLIK
DISSERTATSIYALARINI TAYYORLASH VA
HIMOYAGA OLIB CHIQISH BO‘YICHA MASLAHAT
BERADIGAN “SCIENTIFIC ADVISOR” FAOLIYATI
TO‘G‘RISIDA NIZOM**

*Xalqaro Nordik universitetining 2025-yil 01-dekabrdagi 11-sonli Kengash qarori
bilan o'zgarishlar qayta muhokamadan o'tgan va tasdiqlangan*

“SCIENTIFIC ADVISOR” FAOLIYATI TO‘G‘RISIDA NIZOM

Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O‘RQ–637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2012 yil 24 iyuldagi PF–4456-son hamda “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 8 oktyabrdagi PF–5847-son Farmonlari, 2007-yil 10-sentabrdagi 190-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Magistratura to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 2015 yil 2 martdagi 36-son qaroriga muvofiq Xalqaro Nordik universitetida (keyingi o‘rinlarda Universitet deb yuritiladi) magistrlik dissertatsiyasi mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan mezonlar va talablar hamda magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va uni himoya qilishga komaklashish tartibini belgilaydi.

Magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashga maslahat beradigan “Scientific Advisors” nizomi (keyingi o‘rinlarda **Nizom** deb yuritiladi) Magistratura talabalarining ilmiy faoliyatini tizimli tashkil qilishning ilmiy, uslubiy hamda tashkiliy asoslarini belgilab berishga xizmat qiladi.

1-bob. Umumiy qoidalar va talablar

1.1 Mazkur nizom magistratura talabalarining ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish, ularga IMRAD qoidalari asosida ilmiy tadqiqot ishlarini yozish va rasmiylashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishda ilmiy rahbarlik qilgan “Scientific Advisors” guruhi a‘zolarining faoliyat tartibini belgilash hamda rag‘batlantirish mexanizmlarini belgilaydi.

1.2 Magistratura talabalarining ilmiy faoliyati bilan bog‘liq jarayonlar, yakka tartivdagi ish rejalarini o‘z vaqtida bajarilishini hamda “Uztoz-shogird tizimi grafigi” asosida bajariladigan ishlar samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan.

1.3 Magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashga maslahat beradigan ilmiy maslahatchi (“Scientific Advisor”) ilmiy darajali bo‘lishi hamda soha mutaxassisi sifatida faoliyat ko‘rsatgan bo‘lishi talab qilinadi.

1.4 “Scientific Advisors” guruhi a‘zolarini tayinlash va ularga talabalarni biriktirish Universitet rektori buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

1.5 Har bir ilmiy maslahatchiga har kurs va yo‘nalish kesimida ko‘pi bilan 10 nafargacha talaba belgilanishi mumkin.

1.6 Kafedra ilmiy salohiyatiga nisbatan talabalar soni ko'p bo'lganda istisno holatda Universitet Kengashi qarori bilan katta o'qituvchilar ro'yhati shakllanib, belgilangan mezonlarga javob bersa, 5 tagacha magistratura talabalariga ilmiy maslahatchi sifatida biriktirishga ruxsat berish mumkin.

bunda quyidagi mezonlar amal qiladi:

- mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha kata o'qituvchi sifatida kamida 3 yillik uzluksiz pedagogik va ilmiy faoliyat tajribasiga ega bo'lishi;
- bakalavriat talabalarining bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qilganligi yoki ilmiy tadqiqot ishi himoya arafasida bo'lishi;
- magistratura talabasining dissertatsiyasi mavzusiga yaqin yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni olib borayotganligi;
- ilmiy maqolalar, kamida bitta o'quv qo'llanma/darslik yoki amaliy loyihalarning muallifi bo'lishi;
- ilmiy-tadqiqot usullarini, metodologiyalarni, akademik yozish malakasini o'rgatish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- magistratura talabalari bilan sifatli va o'z vaqtida ish olib borish uchun yetarli ish hajmi va vaqt zaxiralariga ega bo'lishi;
- akademik odob-axloq tamoyillariga qat'iy rioya qila olishi.

Yuqoridagi mezonlar bo'yicha talabga javob beradigan katta o'qituvchilarga ilmiy rahbar hamda maslahatchi sifatida ruxsat berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Nizomning vazifalari:

- Oliy ta'lim tizimining qonuniy asoslari va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq "Scientific Advisors" guruhi faoliyatini tartibga solish;
- Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- Magistratura talabalari uchun dissertatsiyalarini tayyorlash, shaxsiy ish rejalarini o'z vaqtida bajarish bo'yicha maqsadli choralar ko'rishdan iborat;

1.7 Amaldagi huquqiy asoslar

1.7.1 Ushbu nizom quyidagi huquqiy hujjatlarga asoslanadi:

- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari;
- Universitetning kengashining qarorlari hamda ichki tartib-qoidalari va nizomlari.

2-bob. Scientific Advisorning vazifa va vakolatlari

2.1. Scientific Advisorga quyidagi **vazifalar** yuklatiladi:

2.1.1. Kafedra mudiri tomonidan biriktirilgan magistratura talabalari bilan “Ustoz-shogird tizimi grafigi” bo‘yicha doimiy ishlarni amalga oshirish;

2.1.2. Magistratura bosqichi talabalari uchun yakka tartibdagi ish rejalarini hamkorlikda ishlab chiqish;

2.1.3. Magistratura talabalarining ilmiy faoliyatini samarali olib borishga hamda ularga IMRAD qoidalarini asosida ilmiy tadqiqot ishlarini yozish va rasmiylashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishda amaliy yordam berish;

2.1.4. Magistratura talabalari ish rejasida keltirilgan vazifalarni tegishli kafedra mudirlari bilan hamkorlikda doimiy monitoringini olib borish;

2.1.5. Xalqaro yoki respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiyalarda talabalar bilan hamkorlikda ma’ruzalar taqdimoti bilan chiqish qilish;

2.1.6. Belgilangan muddatlarda xalqaro yoki respublika miqyosidagi jurnallarda talabalarining maqola va tezislarni chop etishlariga ko‘maklashish;

2.1.7. Talabalarga semestrlar yakuni bo‘yicha hisobot tayyorlashda ko‘maklashish;

2.1.8. Talabalarining diplom oldi stajirovkasi jarayonini nazoratga olish, ma’lumotlar tahlili jadvalini tuzishga (tajriba sinov ishlarini tashkil etish va natijalar tahlil) ko‘maklashish. Dissertatsiyaning kirish qismida aks etishi lozim bo‘lgan quyidagi bandlar bo‘yicha ko‘rsatmalar berish;

- magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi;
- tadqiqot obyekti va predmeti;
- tadqiqot maqsadi va vazifalari;
- ilmiy yangiligi;
- tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari;
- ish tuzilmasining tavsifi.

2.1.9. Talaba o‘z magistrlik dissertatsiyasini yakunlangach, uni himoyaga tayyorlash.

2.2. “Scientific Advisors” guruhi a’zolari quyidagi **vakolatlarga** ega:

2.2.1. Biriktirilgan talabalarni magistrlik ishini bajarishi bo‘yicha umumiy hulosalar berish va quyidagi ko‘rsatkichlar asosida monitoringini olib borish:

Magistratura talabasi faoliyati ustidan monitoring olib borish bosqichlari:

a) birinchi bosqichda:

kalendar ish rejasining belgilangan muddatlarda o‘z vaqtida bajarilishi;

bitta ilmiy maqola yoki respublika yoki xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyada bitta tezis chop etganligi;

ilmiy seminarlarda ishtirok etganligi;

b) ikkinchi bosqichda:

ikkita ilmiy maqola hamda respublika yoki xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyada ikkita tezis chop etganligi;

magistrlik dissertatsiyasini rasmiylashtirish talablariga muvofiq dastlabki himoyadan o'tganligi, agar u monitoring davrida rejalashtirilgan bo'lsa;

ilmiy seminarlarda ishtirok etganligi;

2.2.2. Faoliyati qoniqarsiz bo'lgan yoki maslahatchi bilan aloqani uzgan talabalar faoliyati bo'yicha tegishli tartibda bildirishnomalarni kafedra mudiri va rahbariyatga kiritish.

3-bob. Scientific Advisor faoliyatini moliyalashtirish

3.1 Scientific Advisor sifatida belgilangan professor-o'qituvchiga haq to'lash ilmiy darajasi hisobga olingan holda, belgilangan tartib va taomillarga muvofiq amalga oshiriladi. Mutaxassislik O'quv rejasining 4-semestrda belgilangan fanlar hamda himoya qilish uchun ajratilgan kreditlar hisobidan (25 soat) amalga oshiriladi.

3.2. "Scientific Advisors" faoliyatini moliyalashtirish manbalari:

Magistratura yo'nalishlari o'quv rejalarida keltirilgan 4-semestrda o'tilishi nazarda tutilgan Ilmiy tadqiqot va ma'lumotlar tahlili, Stajirovka va magistrlik dissertatsiyasi himoyasi uchun ajratilgan kreditlar.

Ustoz-shogird tizimi asosida yutib olingan Respublika yoki xorijiy ilmiy grantlar hisobidan soatbay tarzda amalga oshiriladi.

3.3. Talaba himoya qilgandan so'ng Scientific Advisorga kafedra mudiri va Akademik ishlar departamenti boshlig'ining yozma bildirishnomasi asosida Rektor buyrug'i bilan ish haqi to'lanadi.

4. Yakuniy qoidalar

4.1. Mazkur Nizom universitet Kengashida ko'rib chiqilib, universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda ham xuddi shu tartibga rioya qilinadi.

4.2. "Scientific Advisors" guruhi faoliyati universitet Kengashining qarori bilan vaqtincha to'xtatilishi, tugatilishi, qayta tashkil etilishi yoki birlashtirilishi mumkin.

4.3. "Scientific Advisors" guruhi faoliyatini muvofiqlashtirish Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti tomonidan amalga oshiriladi.